



ORIENTAL UNIVERSITETI
SHARQ TILLARI KAFEDRASI

**«SHARQ TILLARI TADQIQI
VA TA'LIMI MUAMMOLARI»**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN MATERIALLARI**

10-dekabr, 2024-yil

TOSHKENT-2024

Mas'ul muharrir:

Mamataxunov Nozimjon – Oriental universiteti rektori

Ma'sul muharrir o'rinbosari:

Nasirova Malika – Oriental universiteti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Tahrir hay'ati:

Meliboyev Mirkomil – Oriental universiteti Filologiya fakulteti menejeri
Rahmatova Gavhar – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası mudiri,
dotsent
Djurayeva Feruza – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası dotsenti
Ikromjonov Akmaljon – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası v.b. dotsenti
Isamutdinov Azizbek – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta
o'qituvchisi
Mirsadikov Ulug'bek – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta
o'qituvchisi
Tadjiyeva Umida – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta
o'qituvchisi

Nashrga tayyorlovchi:

Sotvoldiyev Sirojiddin – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası katta
o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Sodiqov Qosimjon – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Turkshunoslik” Oliy maktabi professori, filologiya
fanlari doktori
Rustamiy Salima – Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası professori

*To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi
hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.*

Ushbu to'plam Oriental universiteti Kengashining 2024-yil “___” _____dagi ___-sonli
yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

“Sharq tillari tadqiqi va ta’limi muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Oriental universiteti, 2024. – 396 bet.

To’plamda Oriental universitetida o’tkazilgan “Sharq tillari tadqiqi va ta’limi muammolari” deb nomlangan respublika ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etgan taniqli olimlar, yosh tadqiqotchilarning ma’ruzalari jamlangan. Maqolalarda sharq tillari va adabiyotining nazariy masalalari, xorijiy tillar o’qitish metodikasi, manbashunoslik kabi sohalarga oid dolzarb masalalar yoritilgan.

Материалы республиканской научно-практической конференции на тему “Проблемы исследования и преподавания восточных языков”. – Ташкент: Университет Oriental, 2024. – 396 стр.

В сборнике представлены доклады известных ученых и молодых исследователей, принявших участие в республиканской научно-практической конференции “Проблемы исследования и преподавания восточных языков”, проведенной в Университет Oriental. В статьях освещаются актуальные вопросы теории восточных языков и литературы, методики преподавания иностранных языков, а также источниковедения.

Materials of the Republican Scientific and Practical Conference “Problems of Research and Teaching of Oriental Languages”. - Tashkent: Oriental University, 2024. - 396 pages.

The collection comprises reports from prominent scholars and young researchers who participated in the Republican scientific-practical conference titled “Problems of Research and Teaching of Oriental Languages” held at Oriental University. The articles address current issues related to theoretical aspects of Oriental languages and literature, methodologies of teaching foreign languages, and source studies.

البحوث المشاركة في المؤتمر العلمي التطبيقي الجمهوري تحت عنوان “قضايا الدراسات في اللغات الشرقية وتعليمها”. – طشقند: جامعة أورينتال، 2024م. – 396 صفحة.

تحتوي المجموعة على المحاضرات و الدراسات لمشاهير العلماء والباحثين الذين شاركوا في المؤتمر العلمي التطبيقي الجمهوري تحت عنوان “قضايا الدراسات في اللغات الشرقية وتعليمها” الذي تم عقده في جامعة أورينتال. فهذه الدراسات تلقي الضوء على مجالات عديدة مثل المسائل النظرية للغات الشرقية وآدابها، ومنهجية تدريس اللغات الأجنبية، كما يتضمن القضايا المعاصرة ودراسات المصادر.

AFG‘ONISTON YOZMA ADABIYOTINING TARAQQIYOTI

Nargiza KABIROVA,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik”
Oliy maktabi dotsenti, filol.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Afg‘oniston adabiyotida zamonaviy nasriy janr turlari ko‘lami juda kengdir. Biroq, ularning ichida hikoyachilik boshqalariga nisbatan kengroq rivoj topmoqda. Bu janrda ijod qilib kelayotgan afg‘on adiblarining yozgan asarlarida syujet yaratilishini g‘oyaviy mazmun boshqaradi, g‘oyaviy mazmunni uyg‘un holda xarakterlar namoyon bo‘ladigan va hayot ziddiyatlarini umumlashtiradigan voqealar silsilasi kashf etish bilan birga, voqealar silsilasi o‘z navbatida asar g‘oyasini badiiylashtiradi va uni jonlantirishini kuzatamiz.

Kalit so‘zlar: *afg‘on hikoyachiligi, syujet, realistik hikoya, pafos, kompozitsiya, obrazlar tizimi.*

Jahon adabiyotshunosligida adabiyotning tasvir obyekti, ifoda usullari, ijtimoiy-estetik funksiyalarida jiddiy yangilanishlar sodir bo‘ldi. Hozirgi jahon hikoyachiligi mavzu va janrlar, qahramon tanlash va uning ruhiyatini ifoda etish xilma-xilligiga erishdi. Unda nasriy asarlar qiziqarli voqealar tasviridan ko‘ra, ko‘proq inson ruhiyatining badiiy ifodasini ko‘rsatishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Ijodkor o‘zi yaratgan obrazlarni hayotiy voqealar silsilasida, san‘at va adabiyot qonuniyatlari asosida namoyon etadi.

Dunyo adabiyotining ajralmas qismi bo‘lgan Afg‘oniston yozma adabiyoti asrlar davomida uchta tilda: pushtu, dariy va o‘zbek tillarida rivojlanib kelgan. O‘rta asrlarda bu tillarda yaratilgan Afg‘oniston adabiyotining o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li va yuzlab mashhur namoyandalari bor. Ammo hozirgi zamon Afg‘oniston adabiyotining ko‘plab muammolari sharqshunos-afg‘onshunoslarning ilmiy tadqiqotlarini kutib turibdi. Shular jumlasiga hozirgi adabiy jarayon – dariy tilidagi zamonaviy hikoyachilikning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, unda faol ishtirok etayotgan o‘nlab iqtidorli hikoyanavis yozuvchilarning asarlarini tadqiq etishdan iborat. XX asr dunyo adabiyoti, xususan, zamonaviy Afg‘oniston dariy hikoyachiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, hozirgi adabiy jarayoni, unda faol ijod qilayotgan yozuvchilarning asarlarini tadqiq etish, ana shunday yirik ijodkorlarning hikoyanavislik mahoratini jiddiy o‘rganish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelmoqda.

“O‘zbekiston va Afg‘oniston xalqlari asrlar davomida yagona madaniy – sivilizatsion makonda yashab kelgan. Azal-azaldan Amudaryoning ikki tomonida o‘zaro o‘xshash tillar, umumiy muqaddas din va mushtarak ma‘naviy qadriyatlar birlashtirib turadigan xalqlar yashab kelmoqda... Afg‘on zaminida Markaziy Osiyo uyg‘onish davrining Abu Rayhon Beruniy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi ulug‘

«SHARQ TILLARI TADQIQI VA TA'LIMI MUAMMOLARI»

Respublika ilmiy-amaliy anjuman

ajdodlarimiz yashab ijod qilganlar. Bugungi kunda O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida siyosiy, savdo iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar yo'lga qo'yilgan...". O'zbekistonda bu mamlakatda istiqomat qiladigan turli xil xalqlarning og'zaki ijodiyoti namunalari, uzoq tarixga ega bo'lgan yozma adabiyot namunalari tarjima qilinmoqda, ular haqida qator ilmiy risola va tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Badiiy asarning poetik xususiyati albatta uning badiiylilik mezonlari bilan o'lchanadi. Nasrning ixcham janri hikoya poetikasi xususida adabiyotshunos X.Do'stmuhammad shunday munosabat bildiradi: "Mavzu, syujet, konflikt, qahramon, til, ohang, uslub, detal, kulminatsiya, yechim... bularning har birini alohida-alohida tahlil qilish orqali hikoya san'ati, poetikasi haqida maroqli mulohazalar bildirish, umumlashma xulosalar chiqarish mumkin. Chunki mazkur sof adabiy-badiiy unsurlarning bari badiiy tafakkur hodisalari, ijodkor badiiy tafakkurining "xomashyolari", hosilalari hisoblanadi".

Haqiqatan ham nasrda poetika masalasi badiiylilikning ko'p qirralarini o'z ichiga oladi. Bular mavzu tanlashdan boshlab to badiiy tafakkurning eng mayda jihatlarigacha bo'lgan ijod mahsulini qamrab oladi. Mavzu, syujet va kompozitsiya badiiy asar poetikasini o'rganishda aynan yozuvchi asarlarida bo'rtib turgan muhim masalalarni tadqiq etishga qaratiladi. Har bir tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan obyektidan kelib chiqqan holda poetikaning ma'lum bir qismini nazariy asoslaydi.

Umuman nasriy asarlarning poetikasi, uning bir qator masalalari xususida, o'zbek va rus adabiyotshunoslari tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Hikoya jahon xalqlari badiiy tafakkuri tarixidan to bugungacha izchillik bilan shakllanib, bosqichma-bosqich rivojlanayotgan faol nasriy janr hisoblanadi. Uning qadimgi va O'rta asrlardagi ilk namunalarini diniy va mifologik asarlarda, xalq og'zaki ijodiyotida, keyinchalik mumtoz adabiyotda shakllangan nasriy hikoyatlar, qissalar, safarnomalar, dostonlar, tarixiy yodnomalar kabi ko'rinishda bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Hikoyachilikning folklor orqali shakllanish jarayoni haqida jahon adabiyoti tarixidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, Afg'onistonning dariy tili qatori davlat tili hisoblangan va bu mamlakatdagi yirik adabiyotdan biri bo'lgan pushtu adabiyotida ham ilk zamonaviy nasr namunalari, kichik-kichik hikoyalar aynan xalq og'zaki ijodiyoti asosida shakllanganligi afg'onshunos olim G.F.Girsning tadqiqotlarida ta'kidlanadi. Bu olimning yozishicha, pushtu tilidagi ilk zamonaviy hikoyalar namunalari Peshovarlik afg'on yozuvchilari Mavlavi Ahmad (1861–1948), Mir Ahmadshoh Rizvoni (1863–1937), Munshi Ahmadjon (1882–1951), Solih Muhammad Kandahoriy (1890–1961) lar qalamiga mansub bo'lib, bu adiblar o'z hikoyalarini yaratishda xalq og'zaki ijodining shakliy va mazmuniy xususiyatlaridan unumli foydalanganlar, ularning ba'zi hikoyalari to'liq folklorga asoslanganligi ko'rinadi. Ta'kidlash lozimki, aynan folklor syujetlari va uslubida yozilgan qissa va hikoyatlar hozirgi zamon dariy hikoyanavisligining shakllanishida va nasriy adabiyotning mustaqil janrga aylanishida katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Afg'onshunos olim X.Asoyevning ilmiy qarashlari fikrimizga yanada oydinlik kiritadi: "Dariy tilida yozilgan ilk yozma badiiy nasr ham Said Jamoliddin Afg'oniya nisbat beriladi. Ular hikoya janrida bo'lib, alloma ularni umrining so'nggi yillarida yozgan. Bu asarlar original xislatga ega bo'lmasdan, xalq og'zaki ijodi syujetlarining badiiy bayoni shakliga ega bo'ldi. Ularning nomlari – "Shum va Iqbol", "Shahzoda Aziz", "Dilbar va Ajdaho", "Shahzodaye dilrabo" ("Dilrabo shahzoda") ham asarlarning bevosita folklorga aloqador ekanidan dalolat beradi". Demak, ta'kidlaganimizdek, dariyzabon nasrda zamonaviy hikoya janrining vujudga kelishi ilk bor xalq og'zaki adabiyoti ta'sirida namoyon bo'lgan.

Dariyzabon nasrning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omil G'arb badiiy adabiyotidan dariy tiliga qilingan tarjimalar bo'ldi. Umuman G'arb adabiyoti, xususan: Fransiya va Turkiyada yaratilgan nasriy asarlar, shu jumladan zamonaviy hikoyachilikning XIX–XX asrlar bo'sag'asida Sharq xalqlari adabiyotiga tasiri katta bo'lgan. Mahmud Tarziyning bu sohadagi xizmatlari beqiyos edi. U turk adabiyotidagi yangilanishlarni sinchiklab kuzatdi va Turkiya safaridan qaytgach, zamonaviy Afg'oniston dariy adabiyotiga bir qator yangiliklarni olib kirishga intildi va u bunga erishadi ham. Adib yosh afg'on yozuvchilar maktabini tashkil etib, u yerda yangicha g'oyalar va janr xususiyatlaridagi yangicha talqinlarni bo'lajak yozuvchilarga o'rgatadi. Yosh hikoyanavislarning ongiga Yevropa mamlakatlari, Turkiya va Eron matbuotida keng tarqalgan mavzulardan andoza olish kerakligini singdiradi.

Zamonaviy dariyzabon nasrchiligining yetakchi janrlaridan biri hikoyaning ilk bor shakllanishida: xalq og'zaki ijodining nasriy turlari, uzoq tarixga ega bo'lgan fors-dariy yozma adabiyotining nasriy janrlari hamda fransuz, turk, eron va rus adabiyotining nasrchiligidagi tajribalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича “Тинчлик жараёни, хавфсизлик соҳасида ҳамкорлик ва минтақавий шериклик” мавзусида ўтказилган халқаро конференциядаги нутқи. – Т., 2019.
2. Дўстмуҳаммад Х. Ҳикоянинг такомил йўли // Сарчашма мавжлари (мақолалар). – Т.: Mashhur-press, 2016.
3. Гирс Г.Ф. Современная художественная проза на пушту в Афганистане. – М., 1958.
4. Шпак И.М. Абдулла Бахтани и его место в развитии современной афганской новеллы. – № 2. – Известия АН Тадж. Наук, 1969.
5. Асоев Х. Воқеияти зиндаги ва жамбасте бадений. – Д.: Донеш, 1984.
6. Асоев Х. Развитие жанров в прозе на дари. – Д.: Ирфон, 1987.
7. Иномхожаев Р. Афғонистон дариъзабон адабиёти. (XIX аср охири – XX аср). – Т., 2018.
8. Кабирова Н. Раҳнавард Зарёб ҳикояларининг поэтикаси. – Т., 2021.

«SHARQ TILLARI TADQIQI VA TA'LIMI MUAMMOLARI»

Respublika ilmiy-amaliy anjuman

ALMARDONOV D. Arab balogʻat ilmida zikr va hazf tushunchasi va uning qoʻllanilish oʻrinlari	91
XALIMBOYEV B. Imom Nasafiyning arab tili grammatikasi rivojiga qoʻshgan hissasi	95
MAHMUDOV A. Sifatning qiyosiy va orttirma darajasi va uning gaplarda qoʻllanish tartibi	98
YUSUPBOYEV N. Arab tilida qaratqichli birikmaning maʼno qirralari	102
DEDASHEV B. Xattotlik sanʼatida suls yozuvi ahamiyati	106
ТАИРОВА А. Эволюция арабской грамматики от классического до современного	112
АБДУНАБИЕВ С. Араб тилидаги бадий асарлар таржимаси ривож, кўлами ва улардаги миллийлик тахлили	120

2-SHOʻBA SHARQ XALQLARI ADABIYOTINING JAHON XALQLARI MADANIYATI RIVOJIDAGI OʻRNI

MUXIDDINOVA D. Zamonaviy Iroq adabiyotida Fuad At-Tekerliy ijodi	128
تدریس الأدب للناطقين بغير العربية: مشكلات وحلول. عبید محمد عبد الحليم عبد الجواد	133
Саидова Н. Женские образы в произведении Таха Хусейна «Зов горлицы»	142
SATTOROV U. “Layli va majnun” dostoni syujetining tarixiy asoslari va uning xalq variantlari	150
DJURAYEVA F. Ilk oʻrta asrlar arab adabiyotida nasriy janrlar	156
OCHILOV O. Gʻarb sheʼriyatining Xitoyga kirib kelishi va taʼsiri xususida	159
QORAYEV SH. Hukmdorlar shoiri va olim Muhammad Shayboniyxonning turkiy munozara majlislari	164
TURDIYEV J. “Meʼrojnom” asari va uning sharq xalqlari madaniyati rivojida tutgan oʻrni	168
KABIROVA N. Afgʻoniston yozma adabiyotining taraqqiyoti	173
РАСУЛМУХАМЕДОВА Д., КУЧКАРОВА М. Қиёсий адабиётшунослик масалаларига доир	176